

O‘ZBEKISTONDAGI BANK VA MOLIYA TIZIMI

Mardayeva Maftuna Ashur qizi

UMFT, 2-kurs talabasi

E-mail: mardayevamaftuna740@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining bank va moliya tizimi, uning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va hozirgi davrdagi islohotlar jarayoni yoritilgan. Mustaqillik yillaridan boshlab mamlakatda moliyaviy tizimni modernizatsiya qilish, iqtisodiyotni bozor tamoyillariga moslashtirish, bank xizmatlarini kengaytirish hamda xalqaro standartlarga mos moliyaviy boshqaruv tizimini joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilgani ta’kidlangan. Maqolada O‘zbekiston Markaziy bankining milliy valyuta barqarorligini ta’minlash, inflyatsiyani jilovlash va pul-kredit siyosatini takomillashtirishdagi roli tahlil etiladi. Shuningdek, tijorat banklarining iqtisodiyotdagi o‘rni, ularning kredit siyosati, aholi va tadbirkorlik subyektlariga ko‘rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar hajmi hamda ularning sifatini oshirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Maqolada so‘nggi yillarda raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish, to‘lov tizimlarini avtomatlashtirish, mobil ilovalar orqali mijozlarga qulay sharoit yaratish kabi yangiliklarning amaliy ahamiyati ham ochib beriladi. Shu bilan birga, bank tizimi oldida turgan asosiy muammolar – likvidlikni boshqarish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar ilgari suriladi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston moliya tizimining hozirgi holatini, uning iqtisodiy o‘rindagi o‘rni va istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: bank tizimi, moliya bozori, Markaziy bank, tijorat banklari, pul-kredit siyosati, raqamli moliya, iqtisodiy islohotlar, investitsiya muhiti.

BANKING AND FINANCIAL SYSTEM IN UZBEKISTAN

Mardayeva Maftuna Ashur qizi

UMFT, 2nd year student

E-mail: maftunamardayeva740@gmail.com

ABSTRACT

This article examines the banking and financial system of the Republic of Uzbekistan, its formation stages, and current reform directions. Since gaining

independence, Uzbekistan has carried out large-scale measures aimed at modernizing the financial system, strengthening the banking sector, and implementing international management standards. The paper analyzes the role of the Central Bank in ensuring the stability of the national currency, controlling inflation, and improving monetary policy. It also explores the role of commercial banks in the economy, their credit policies, and the development of digital finance and payment systems. The study results help identify modern trends in Uzbekistan's financial system and provide recommendations to enhance the competitiveness of the banking sector and the stability of the national economy.

Keywords: banking system, financial market, Central Bank, monetary policy, commercial banks, digital finance, economic reforms.

БАНКОВСКАЯ И ФИНАНСОВАЯ СИСТЕМА УЗБЕКИСТАНА

Mardayeva Maftuna Ashur qizi

UMFT, студент 2-го курса

E-mail: maftunamardayeva740@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрена банковско-финансовая система Республики Узбекистан, этапы её формирования и современные направления реформ. После обретения независимости в стране были проведены масштабные преобразования, направленные на модернизацию финансовой системы, укрепление банковского сектора и внедрение международных стандартов управления. В статье анализируется роль Центрального банка в обеспечении стабильности национальной валюты, контроле инфляции и совершенствовании денежно-кредитной политики. Особое внимание уделено деятельности коммерческих банков, их кредитной политике, развитию цифровых финансов и платежных систем. Результаты исследования направлены на определение современных тенденций финансовой системы Узбекистана и выработку предложений по повышению конкурентоспособности банковского сектора и устойчивости экономики.

Ключевые слова: банковская система, финансовый рынок, Центральный банк, денежно-кредитная политика, коммерческие банки, цифровые финансы, экономические реформы.

KIRISH

Har qanday davlat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, avvalo, uning moliya va bank tizimining mustahkamligiga bog‘liqdir. Moliya tizimi milliy iqtisodiyotning muhim bo‘g‘ini bo‘lib, ishlab chiqarish, investitsiya, pul muomalasi va davlat byudjetining samarali boshqaruvini ta‘minlaydi. Shu jihatdan, O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda bank-moliya tizimini isloh qilish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish va raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, moliya tizimining asosiy institutsional poydevori – Markaziy bank va tijorat banklari faoliyati shakllantirildi. Davlat tomonidan iqtisodiyotni erkinlashtirish, bozor mexanizmlarini rivojlantirish, xususiyl tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash hamda bank xizmatlarining sifatini oshirish yo‘nalishida qator dasturlar ishlab chiqildi. Bugungi kunda mamlakatda 30 dan ortiq tijorat banklari faoliyat yuritmoqda, ularning aksariyati raqamli moliyaviy xizmatlarni joriy etish, elektron to‘lov tizimlarini kengaytirish va aholi uchun qulay sharoit yaratish borasida muhim natijalarga erishmoqda. Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va bank tizimining likvidligini oshirish masalalari ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Mazkur maqolada O‘zbekistonning bank-moliya tizimi, uning shakllanish bosqichlari, hozirgi holati va istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mamlakat moliya sektorini yanada barqaror va raqobatbardosh qilishga xizmat qiluvchi islohotlarning samaradorligi ham baholanadi. Shu bilan birga, mamlakat moliya tizimini yanada takomillashtirish maqsadida davlat tomonidan qator huquqiy va institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Banklarning kapital bazasini mustahkamlash, ularning moliyaviy barqarorligini oshirish hamda xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlikni kengaytirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir. Moliya bozorini erkinlashtirish, shaffoflikni ta‘minlash va korrupsiya holatlarini kamaytirish yo‘nalishidagi chora-tadbirlar ham ijobiy natijalar bermoqda. Bundan tashqari, raqamli bank xizmatlarining kengayishi aholiga qulaylik yaratib, iqtisodiy faoliyatni yanada tezlashtirmoqda. Shu bois, bank-moliya tizimining barqaror ishlashi mamlakatning umumiy iqtisodiy taraqqiyoti va xalq farovonligi uchun muhim omil hisoblanadi.

Uslublar. Ushbu tadqiqot ishida O‘zbekistonning bank-moliya tizimini tahlil qilishda iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil, statistik va tizimli yondashuv uslublari qo‘llanildi. Maqolada avvalo mamlakat bank tizimining shakllanish bosqichlari tarixiy jihatdan o‘rganildi, keyinchalik uning hozirgi holati raqamlar va iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida O‘zbekiston

moliya tizimi ayrim rivojlangan davlatlarning tajribasi bilan solishtirildi. Bu orqali milliy bank sektorining afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash imkoniyati yaratildi. Statistika usuli orqali Markaziy bank, Moliya vazirligi hamda xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlar tahlil qilindi. Bundan tashqari, tizimli yondashuv usuli yordamida bank tizimining ichki tuzilmasi, tijorat banklari o'rtasidagi o'zaro aloqalar hamda ularning iqtisodiyotdagi o'rnini o'rganildi. Analitik uslub asosida esa bank-moliya tizimining hozirgi rivojlanish tendensiyalari, muammolari va istiqbollari yuzasidan ilmiy xulosalar ishlab chiqildi. Natijada, turli manbalardan olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, O'zbekiston bank-moliya tizimini takomillashtirish bo'yicha nazariy va amaliy takliflar ishlab chiqildi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, ekspert baholash va kuzatuv usullaridan ham foydalanildi. Bu usullar orqali bank tizimining rivojlanishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar aniqlanib, ularning iqtisodiy jarayonlardagi o'rnini belgilandi. Ma'lumotlarni tahlil qilishda dinamik qatorlar va grafik usullar yordamida ko'rsatkichlarning o'zgarish tendensiyalari kuzatildi. Tadqiqotda olingan natijalar asosida bank sektorini yanada takomillashtirish bo'yicha aniq amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu usullar maqolaning ilmiy asoslanganligini va natijalarning ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning bank-moliya tizimi mustaqillik yillarida bosqichma-bosqich shakllanib, bugungi kunda milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. So'nggi yillarda olib borilgan iqtisodiy islohotlar, xususan bank sektorini liberallashtirish, kredit siyosatini yumshatish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlari ijobiy natijalar bermoqda. Markaziy bank tomonidan amalga oshirilgan pul-kredit siyosati milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash, inflyatsiya darajasini pasaytirish hamda banklarning likvidlik darajasini oshirishda muhim rol o'ynadi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda bank aktivlari hajmi, aholi omonatlari va kredit portfeli hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Bu esa aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchi oshayotganini ko'rsatadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari faoliyati real sektorni moliyalashtirishda muhim manbaga aylangan. Ular tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ajratilayotgan kreditlar hajmi yil sayin ortmoqda. Bundan tashqari, raqamli bank xizmatlari va elektron to'lov tizimlarining joriy etilishi banklar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirib, xizmatlar sifatini yaxshilashga turtki bo'lmoqda.

Tadqiqot yakunida quyidagi istiqbolli yo'nalishlar taklif etiladi:


- a) Moliya bozorini yanada erkinlashtirish va raqobatni kuchaytirish
- b) Banklarning kapitallashtirish darajasini oshirish

c) Xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish

d) Aholi moliyaviy savodxonligini oshirish

e) Raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi texnologiyalarni bank amaliyotiga keng tatbiq etish.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning bank-moliya tizimi izchil rivojlanmoqda va iqtisodiyotning barqaror o'sishida hal qiluvchi omilga aylanmoqda¹. Markaziy bank O'zbekistonda milliy valyuta "so'm" orqali pul-kredit siyosatini yuritadi. Moliyaviy sektorni isloh qilish doirasida hukumat va xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Misol uchun, World Bank tomonidan 2022 yilda O'zbekistonga moliyaviy sektorni isloh qilish bo'yicha kredit ajratish belgilangan. Bankning sektor tarkibi: 2021 yil holatiga ko'ra, bank tizimida 33 ta tijorat banki mavjud bo'lib, ulardan davlatga qarashlilari kredit bo'yicha katta ulushga ega. Islohotlar strategiyasi: 2020-2025 yillarga mo'ljallangan "Bank tizimini isloh qilish strategiyasi" imzolangan. Unda banklarni xususiylashtirish, xalqaro standartlarni joriy etish kabi maqsadlar belgilangan. ²Moliyaviy institutlar orasida davlatning ishtiroki katta bo'lib, bank aktivlari va resurslarining aksariyati davlat banklariga to'plangan. Banklarning kreditlash faoliyati ma'lum bir tarmoqlarga yo'naltirilgan bo'lib, moliyaviy intermediasiya ya'ni jamg'arish-kreditlash funksiyasi cheklanganligi qayd etiladi. Masalan, 2025 yilga kelib bank aktivlarida davlat ulushining ulushini kamaytirish, xususi banklar ulushini oshirish kabi maqsadlar qo'yilgan.³



¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki – "O'zbekiston bank tizimi to'g'risida" yillik hisobotlar (2022–2024)

² "THE CONCEPT OF ISLAMIC BANKING AND ITS ESSENCE IN THE BANKING SYSTEM OF UZBEKISTAN", JournalNX, 2022 <https://cbu.uz>

³ "2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra O'zbekiston tijorat banklarining asosiy ko'rsatkichlari", 2024-yil avgust. <https://invexi.org>

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari.

Diagramma tahlili: taqdim etilgan diagrammada 2023-yil va 2024-yillarda ajratilgan kreditlarning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ulushi solishtirilgan. Ma'lumotlar kredit siyosati va iqtisodiy faoliyatning yo'nalishi bo'yicha sezilarli o'zgarishlar mavjudligini ko'rsatadi. 2023-yilda kreditlarning eng katta qismi qishloq xo'jaligi sohasiga yo'naltirilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich keskin kamaygan. Qishloq xo'jaligi ulushi 27 foizdan 12 foizgacha qisqargan bo'lib, bu sohada kreditlar hajmi sezilarli kamayganini bildiradi. Xuddi shuningdek, sanoat va qurilish tarmoqlarida ham kredit ulushining kamayishi kuzatiladi. Sanoatda bu ko'rsatkich 5 foizdan 3–4 foizgacha, qurilishda esa 6 foizdan 2 foizgacha tushgan. Eng katta o'zgarish jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar ulushida kuzatiladi. Agar 2023-yilda bu segment atigi 3–4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 40 foizga yetgan. Ushbu keskin o'sish banklarning kredit siyosati jismoniy shaxslar, ya'ni iste'mol kreditlash tomonga faol o'zgarganini ko'rsatadi. Bu holat aholi o'rtasida kreditga bo'lgan talabning ortganidan dalolat berishi mumkin, biroq kredit xavflarining ko'payishiga ham olib kelishi ehtimoli bor.

Muhokama. O'zbekistonda so'nggi yillarda bank va moliya tizimi jadal islohotlar yo'lidan bormoqda. Bu sohada olib borilayotgan islohotlar mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, investitsion muhitni yaxshilash hamda aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Avvalo, bank tizimining barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida davlat ulushi yuqori bo'lgan tijorat banklarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Shuningdek, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda bank kapitalini mustahkamlash, kredit portfelini sog'lomlashtirish, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida sezilarli natijalarga erishilmoqda. Aholi va tadbirkorlik subyektlariga qulay shartlarda ipoteka, mikrokredit va onlayn kredit xizmatlari taklif etilmoqda. Moliya bozori rivojida ham muhim o'zgarishlar yuz bermoqda. Fond bozori faoliyatini takomillashtirish, qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilish mexanizmlarini soddalashtirish hamda investorlarga yangi imkoniyatlar yaratish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, sug'urta, lizing va mikromoliya tashkilotlarining faoliyat doirasi kengayib, moliya tizimida raqobat kuchaymoqda. Biroq tizimda hal etilishi lozim bo'lgan ayrim masalalar ham mavjud. Jumladan, ayrim tijorat banklarida xizmatlar sifati va mijozlarga yondashuv darajasi yetarli emas, raqamli moliyaviy savodxonlik pastligicha qolmoqda. Shuningdek, xalqaro standartlarga to'liq mos keladigan korporativ boshqaruv tizimini joriy etish zarurati hamon dolzarbdir. Umuman olganda, O'zbekistonning bank va moliya tizimi bosqichma-

bosqich modernizatsiya qilinib, iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim omil sifatida shakllanmoqda. Kelgusida ushbu yo‘nalishda raqamli transformatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va xalqaro bozorlarga integratsiyani kuchaytirish asosiy vazifalar sifatida belgilangan.

1-jadval

**“O‘zbekistondagi asosiy tijorat banklarining aktivlari hajmi” (mlrd
so‘mda)**

Bank nomi	2021	2022	2023	2024	O‘sinh (%)
O‘zbekiston miliy banki	80 000	92 000	106 000	122 000	+52.5
Asaka bank	52 000	57 000	63 000	70 000	+34.6
Ipoteka bank	40 000	45 000	49 000	54 000	+35.0
Agrobank	35 000	42 000	50 000	60 000	+71.4
Xalq banki	30 000	35 000	41 000	48 000	+60.0
Jami	237 000	271 000	309 000	354 000	3,224

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik ma‘lumotlar: 2021–2024 yillar.

2021–2024 yillar davomida hukumat tomonidan “Asaka Bank”, “Ipoteka Bank”, “Aloqabank” va “Turonbank” kabi banklarning aksiyalarini bozorga chiqarish bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Bu jarayon bank tizimining raqobatbardoshligini oshirib, xalqaro investorlarni jalb etish imkonini yaratdi. Umuman olganda, 2021–2024 yillar mobaynida O‘zbekiston bank tizimi aktivlar hajmini 50 % ga yaqin oshirdi, xizmatlar sifati va turlari sezilarli darajada kengaydi, xususi sektor ulushi bosqichma-bosqich ortib bormoqda. Banklararo raqobat hamda kapital bozorlaridagi faoliyat faollashdi. O‘zbekiston bank va moliya tizimini yanada rivojlantirish, barqarorligini mustahkamlash hamda xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida bir qator takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, mamlakat bank tizimida raqobat muhitini kuchaytirish zarur. Buning uchun davlat ulushi yuqori bo‘lgan banklarda xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish va yangi xususi hamda xorijiy kapital ishtirokidagi banklarning faoliyat yuritishiga keng imkoniyat yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu esa xizmatlar sifati, innovatsiyalar va mijozlarga qulayliklar nuqtai nazaridan sog‘lom raqobatni shakllantiradi. Ikkinchidan, kapital bozorlarini rivojlantirish bank tizimining barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega. Banklar faqat kreditlash faoliyati bilan cheklanib qolmasdan, obligatsiyalar, aksiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlar

orqali kapital jalb etish imkoniyatlarini kengaytirishlari lozim. Bu yo‘nalish nafaqat banklar likvidligini oshiradi, balki investitsiya oqimini ham faollashtiradi.

XULOSA

Eng yirik banklar, xususan, O‘zbekiston Milliy banki, Agrobank va Xalq banki faoliyatining o‘shish sur‘atlari mamlakat moliya sektorining ichki resurslarni samarali jalb qilish imkoniyatini mustahkamlashda muhim rol o‘ynadi. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonlari, masofaviy bank xizmatlarining kengayishi va moliyaviy texnologiyalarning joriy etilishi bank tizimini aholiga yanada qulay va tezkor xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirdi. Xususiylashtirish va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik esa banklar faoliyatining shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, moliyaviy savodxonlikni oshirish, raqamli xizmatlarni rivojlantirish va xususiy sektor ulushini yanada kengaytirish orqali tizimning samaradorligi va xalqaro maydondagi nufuzi yanada mustahkamlanishi mumkin. O‘zbekiston bank-moliya tizimi kelgusida ham iqtisodiy o‘shish, investitsiya faolligi va moliyaviy barqarorlikning asosiy tayanchlaridan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mamedova G.K. “THE IMPACT OF DIGITIZATION ON THE BANKING SECTOR OF UZBEKISTAN.” *Academia Science Repository*, vol. 4, no. 5, 2023, pp. <https://academiascience.com/index.php/repo/article/view/725>
2. Ziyadullayev Z. “Prospects of digital bank development in Uzbekistan.” *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, vol. 2, no. 11, 2024 <https://yashil-iqtisodiyot.taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/3798>
3. Ruziyev Z. I., Suyunov D. R. “DIGITAL IN THE BANK SYSTEM OF UZBEKISTAN FINANCIAL SERVICES APPLICATION MECHANISMS.” *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, vol. 19, 2023, pp. 213-215. <https://americanjournal.org/index.php/ajper/article/view/1644>
4. Development of the banking system — Shodiyorov Doniyor, Boboxonov Mirvali, Ziyadullayeva M.T. (2025). “Development of the banking system.” *Ilm Fan Xabarnomasi* <https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/article/view/11557>
5. An overview of green banking practices in Uzbekistan — Gulomkodiroya Mamura Saydumarxon. (2023). “An overview of green banking practices in Uzbekistan.” *Qo‘qon Universiteti Xabarnomasi*. https://www.herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/view/851

6. Issues of banking system digitalization in Uzbekistan — Abduvakhidov Akmal va boshqalar. (2022). “Issues of banking system digitalization in Uzbekistan.” *World Bulletin of Management and Law*, Vol. 11.

<https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/1046>

7. Features of the development of the banking system of the Republic of Uzbekistan at the present stage — Azlarova Aziza. (2025). “Features of the development of the banking system of the Republic of Uzbekistan at the present stage.”

<https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/iit/article/view/375>